# ASOSIY KAPITALGA INVESTITSIYALARNING HAJMI, TARMOQLAR, HUDUDLAR VA MOLIYALASHTIRISH MANBALARI BO‘YICHA, NAVOIY VILOYATI MIQYOSIDA TAHLILI

*Navoiy innovatsiyalar universiteti*
*Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)*
*fakulteti talabasi* ***Aliqulov Abulqosim***
*Navoiy innovatsiyalar universiteti”*
*Iqtisodiyot va axborot texnologiyalari ” kafeddrasi o`qituvchisi*
***D.K.Ochilova***

***Annotatsiya****:* *Ushbu maqola asosiy kapitalga qilingan investitsiyalarning o‘lchami va ularning tarmoqlar, hududlar hamda moliyalashtirish manbalari bo‘yicha taqsimlanishini chuqur tahlil qilishga qaratilgan. Tahlil jarayonida investitsiyalarning o‘sish sur’ati, tarmoqlar kesimida investitsiyalar hajmi (masalan, sanoat, qishloq xo‘jaligi, qurilish), hududlar bo‘yicha taqsimoti va iqtisodiy rivojlanishga ta’siri o‘rganiladi. Shuningdek, investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari, ya’ni davlat budjeti, xususiy sektor, kreditlar, xorijiy kapital va boshqa manbalar tahlil qilinib, ularning iqtisodiyotga ta’siri baholanadi. Bu tahlil iqtisodiy siyosatni shakllantirish va investitsiya oqimlarini samarali boshqarish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni taqdim etadi. Maqola Navoiy viloyatida 2025-yilning yanvar–mart oylari davomida asosiy kapitalga yo‘naltirilgan investitsiyalarning hajmi, tarmoqlar va hududlar bo‘yicha tahlili asosida yoritilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *asosiy kapital, investitsiya, xorijiy investitsiya, sanoat, iqtisodiy faoliyat, Navoiy viloyati.*

***Аннотация:*** *Данная статья посвящена глубокому анализу объёма инвестиций в основной капитал и их распределению по отраслям, регионам и источникам финансирования. В ходе анализа рассматриваются темпы роста инвестиций, объёмы инвестиций по отраслям (промышленность, сельское*

*хозяйство, строительство), распределение по регионам и влияние на экономическое развитие. Кроме того, анализируются источники финансирования инвестиций, включая государственный бюджет, частный сектор, кредиты, иностранный капитал и другие, а также оценивается их воздействие на экономику. Этот анализ предоставляет необходимую информацию для формирования экономической политики и эффективного управления инвестиционными потоками. Статья основана на анализе объёмов инвестиций в основной капитал в Навоийской области за период январь-март 2025 года с учётом отраслевого и регионального распределения.*

***Ключевые****: словаосновной капитал, инвестиции, иностранные инвестиции, промышленность, экономическая деятельность, Навоийская область.*

***Annotation:*** *This article is focused on an in-depth analysis of the volume of investments made in fixed capital and their distribution across sectors, regions, and funding sources. The analysis covers the growth rates of investments, the volume of investments by sectors such as industry, agriculture, and construction, as well as their regional allocation and impact on economic development. Furthermore, funding sources of investments, including the state budget, private sector, credits, foreign capital, and others, are examined to evaluate their influence on the economy. This analysis provides essential information for forming economic policy and managing investment flows effectively. The article is based on the analysis of investments directed toward fixed capital in Navoi region during January–March 2025, considering sectoral and regional distribution.*

***Keywords:*** *fixed capital, investment, foreign investment, industry, economic activity, Navoi region.*

Oʻzbekiston iqtisodiyotida soʻnggi yillarda investitsion muhitni yaxshilash va xorijiy kapitalni jalb etish boʻyicha islohotlar natijasida hududlarda yangi loyihalar amalga oshirilmoqda. Shulardan biri sifatida Navoiy viloyati — mamlakatning yirik sanoat va energetika markazi boʻlib, u yerda asosiy kapitalga yoʻnaltirilgan investitsiyalar iqtisodiy

o‘sishning asosiy omillaridan biridir.

Xususan:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan qator farmon va qarorlar mamlakatimizda investitsiya muhitini yaxshilashga qaratilgan.

2019-yil 6-avgustdagi PF–5780-sonli Farmon — «Investitsiya siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari».

2022-yil 28-dekabrdagi PQ–465-son qaror — hududlarda sanoatni rivojlantirish va investitsiyalar hajmini oshirish masalalari.

Navoiy viloyati respublikamizning eng yirik sanoat markazlaridan biri bo‘lib, investitsiyalar asosan ishlab chiqarish va energetika tarmoqlariga yo‘naltiriladi.

**2025-yil yanvar- mart oylarida asosiy kapitalga investitsiyalarning hajmi dinamikasi,** *mlrd . so‘m*




So‘ngi yillardagi ularning o‘sish sur’atlarini ko‘radigan bo‘lsak, 2021- yilda eng past o‘sish sur’ati qayd etilganini va 69,9 % qayt etilgan, shundan so‘ng 2022-yillarda yana o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lib, joriy davrda esa ko‘rsatkich 79,7 % qayd etilganini ko‘rishimiz mumkin.

**Asosiy kapitalga investitsiyalar o‘sish sur’atlari dinamikasi, % da**



Jami investitsiyalar hajmida, markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi, 2024-yilning yanvar- mart oylariga nibatan ulushi 0,3 punktga ko’payib, 9,4 % ni yoki 756,0 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 7 317,3 mlrd. so‘m yoki jami investitsiyalarning 90,6 % ulushi o‘zlashtirilib, 2024- yilning yanvar- mart oylariga nisbatan 0,3 punktga kamaydi.

**Hududlar kesimida jami asosiy kapitalga investitsiyalar ulushi, % *da***







| | mlrd. so‘m | o‘sish sur’ati, % da | mlrd. so‘m | o‘sish sur’ati, % da |
|---|---|---|---|---|
| Viloyat bo‘yicha | 8 073,30 | 79,7 | 5 331,70 | 72,6 |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| shaharlar: | | | | |
|  Navoiy | 830,8 | 35,9 | 451,7 | 22 |
|  Zarafshon | 511 | 71,8 | 21,5 | 9,2 |
|  G‘ozg‘on | 181,4 | 3,8 m | 155,4 | 4,6 m |
| tumanlar: | | | | |
|  Karmana | 1 988,70 | 119,3 | 1 130,10 | 152,9 |
|  Konimex | 191,5 | 45,3 | 80,2 | 76,9 |
|  Qiziltepa | 256 | 113,8 | 107 | 146,9 |
|  Navbahor | 417 | 194,8 | 142,4 | 147,8 |
|  Nurota | 1 829,10 | 4,9 m | 1 693,60 | 6,1 m |
|  Tomdi | 825,2 | 23,2 | 793,4 | 23,4 |
|  Uchquduq | 756,3 | 192,7 | 698,5 | 2,1 m |
|  Xatirchi | 286,3 | 141,6 | 57,9 | 7,9 m |

Sanoat va energetika sektorlari jami investitsiyalarning 70 foizdan ortig‘ini tashkil etmoqda.

Xulosa qilib aytganda tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, Navoiy viloyatida investitsiyalar asosan ishlab chiqarish va energetika sohalariga yo‘naltirilgan. Xorijiy investitsiyalar ulushi yuqori bo‘lib, bu viloyatni xalqaro iqtisodiy hamkorlik markaziga aylantirmoqda. Biroq ayrim tumanlarda investitsiya faolligining pastligi va xizmat ko‘rsatish sohalarining yetarli rivojlanmaganligi iqtisodiyotning diversifikatsiyasiga to‘sqinlik qilmoqda.

So‘ngi yillardagi ularning o‘sish sur’atlarini ko‘radigan bo‘lsak, 2021- yilda eng past o‘sish sur’ati qayd etilganini va 69,9 % qayt etilgan, shundan so‘ng 2022-yillarda yana o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lib, joriy davrda esa ko‘rsatkich 79,7 % qayd etilganini ko‘rishimiz mumkin.

Jami investitsiyalar hajmida, markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi, 2024-yilning yanvar- mart oylariga nibatan ulushi 0,3 punktga ko’payib, 9,4 % ni yoki 756,0 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish

manbalari hisobidan 7 317,3 mlrd. soʻm yoki jami investitsiyalarning 90,6 % ulushi oʻzlashtirilib, 2024- yilning yanvar- mart oylariga nisbatan 0,3 punktga kamaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. - Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari (PF-5780 sonli 2019-yil 6-avgustdagi Farmon, PQ-465 sonli 2022-yil 28-dekabrdagi Qaror) — investitsiya siyosatini rivojlantirishga qaratilgan asosiy hujjatlar.

2. - Oʻzbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qoʻmitasi hisobotlari — investitsiyalar hajmi, oʻsish sur’atlari va hududiy taqsimot boʻyicha rasmiy statistik ma’lumotlar.

3. - Navoiy viloyati hokimligi va iqtisodiy rivojlanish boshqarmasining tahliliy hisobotlari — viloyat va tumanlarga koʻra investitsiyalar statistikasi.

4. - Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi materiallari — investitsiya muhitining shakllanishi va xorijiy kapital oqimlari haqida ma’lumotlar.

5. - Ilmiy maqolalar va iqtisodiy tahlillar — investitsiyalar va hududiy iqtisodiy rivojlanish mavzusidagi analitik materiallar.